

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 38 732,2 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,2 % ga o'sdi.



YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 110,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,8 % ga yetdi.

## 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd so'm		o'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023-yil	2024-yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>32 968,3</b>	<b>38 732,2</b>	<b>106,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	32 417,6	38 107,0	106,2
mahsulotlarga sof soliqlar	550,7	625,2	106,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>32 417,6</b>	<b>38 107,0</b>	<b>106,2</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>14 098,9</b>	<b>15 662,8</b>	<b>103,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>5 604,1</b>	<b>6 885,7</b>	<b>109,3</b>
sanoat	2 360,1	3 279,3	108,8
qurilish	3 244,0	3 606,4	109,6
<b>xizmatlar</b>	<b>12 714,6</b>	<b>15 558,5</b>	<b>107,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 543,8	5 673,3	111,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 436,7	1 792,5	112,2
boshqa xizmat tarmoqlari	6 734,1	8 092,7	103,6




Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 344,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 3,6 % ga yuqoridir.

## 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2023-yil	2024-yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>43,5</b>	<b>41,1</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>17,3</b>	<b>18,1</b>
sanoat	7,3	8,6
qurilish	10,0	9,5
<b>xizmatlar</b>	<b>39,2</b>	<b>40,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,0	14,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,4	4,7
boshqa xizmat tarmoqlari	20,8	21,2



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 41,1 % ni, sanoat tarmog‘i 8,6 % ni, qurilish 9,5 % ni va xizmatlar sohasi 40,8 % ni tashkil qildi.


## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YAHM o'lishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 2,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,6 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,0 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,9 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,8 f.p. (2023- yilda – 1,9 f.p.) ijobiy (salbiy) hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.) ga ko'paydi

## 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'lishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. o'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 41,1%), sanoatda – 108,8 % (8,6 %), qurilishda – 109,6 % (9,5 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (40,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,3 % (14,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,2 % (4,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % dan (21,2 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 110,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda 127,7 % va xizmatlar sohasida 114,0 % qayd etildi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 29 998,1 mlrd soʻmni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 25 230,6 mlrd soʻm). YAHMdagi ulushi 78,7 % ni (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 77,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

